

## NOSOG'LOM OILA MUHITIDA TARBIYALANGAN FARZANDLAR XULQIDAGI OG'ISHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Jalilova Shaxlo Muzaffarxon qizi*

*Farg'ona viloyati Rishton tumani 15- maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nosog'lom oila muhitining farzand xulq-atvoriga ta'siri, xulqdagi og'ishlarning psixologik sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Oila muhitidagi nizolar, emotsional beqarorlik va e'tiborsizlik bolada salbiy xulq shakllanishiga olib kelishi mumkinligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** nosog'lom oila, xulq og'ishi, psixologik muammo, bola tarbiyasi, stress, agressivlik, emotsional rivojlanish.

### KIRISH

Nosog'lom oila muhiti farzandning psixologik rivojlanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biridir. Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo'lib, aynan shu yerda uning xulq-atvori, qadriyatlari va shaxsiy qarashlari shakllanadi. Agar oilada doimiy janjal, kelishmovchilik, zo'ravonlik yoki befarqlik hukm sursa, bola ruhiyatida ichki ziddiyatlar paydo bo'ladi.

Bunday muhitda o'sgan bolalarda xulq og'ishlari turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ularda agressivlik, qo'pollik, yolg'on gapirish, o'ziga ishonchsizlik yoki aksincha haddan tashqari tajovuzkorlik kuzatilishi mumkin. Ba'zi bolalar esa ichki hissiyotlarini yashirib, tortinchoq va ijtimoiy faoliyatsiz bo'lib qoladi.

Psixologik jihatdan nosog'lom oila muhiti bolada doimiy stress holatini keltirib chiqaradi. Bu esa uning diqqat, xotira va emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zini himoyasiz his qiladi va ko'pincha noto'g'ri xulq orqali o'z hissiyotlarini ifodalashga harakat qiladi.

Shuningdek, ota-onaning e'tiborsizligi yoki haddan tashqari qattiqqo'lligi bolada noto'g'ri xulq shakllanishiga sabab bo'ladi. E'tibor yetishmagan bola o'zini jamiyatda keraksiz his qilishi mumkin, bu esa turli salbiy harakatlarga olib keladi.

Nosog'lom oila muhitining yana bir oqibati — bu ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklardir. Bunday bolalar tengdoshlar bilan muloqot qilishda qiynaladi, ishonchsizlik va qo'rquv hissi kuchli bo'ladi. Nosog'lom muhit deganda insonning ruhiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sharoitlar tushuniladi. Bunday muhit oilada, maktabda yoki ijtimoiy jamiyatda mavjud bo'lishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan shakli esa oilaviy nosog'lom muhit hisoblanadi.

Nosog'lom muhitda ko'pincha doimiy nizolar, tushunmovchiliklar, zo'ravonlik, e'tiborsizlik yoki beqaror psixologik holatlar kuzatiladi. Bunday sharoitda o'sayotgan bola o'zini xavfsiz his qilmaydi va bu uning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir

ko'rsatadi.

Psixologik jihatdan nosog'lom muhit bolaning ichki dunyosida stress va xavotirni kuchaytiradi. Bola doimiy qo'rquv va bosim ostida yashasa, uning diqqat, xotira va fikrlash jarayonlari susayadi. Bu esa ta'lim jarayonida ham qiyinchiliklarga olib keladi.

Shuningdek, nosog'lom muhitda tarbiyalangan bolalarda xulq og'ishlari ko'proq kuzatiladi. Ular agressiv, asabiy yoki aksincha juda tortinchoq bo'lib qolishi mumkin. Ba'zan ijtimoiy aloqalardan qochish holatlari ham yuzaga keladi. Nosog'lom muhit bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini ham pasaytiradi. U o'zini qadrsiz his qilishi, jamiyatda o'z o'rnini topishda qiynalishi mumkin. Bu esa kelajakda shaxsiy va kasbiy rivojlanishga salbiy ta'sir qiladi. Bunday holatlarning oldini olishda oilaviy muhitni sog'lomlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o'rtasidagi ijobiy munosabat, bolaga mehr va e'tibor berish, tinch va barqaror muhit yaratish zarur.

Maktab va psixologik xizmatlar ham nosog'lom muhit ta'sirini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar bilan individual ishlash, psixologik yordam ko'rsatish va ijobiy muhit yaratish samarali usullardan biridir. Bunday holatlarni bartaraf etishda psixologik yordam juda muhimdir. Bola bilan individual ishlash, uning his-tuyg'ularini tushunish va qo'llab-quvvatlash zarur. Maktab psixologi va o'qituvchilar ham bu jarayonda faol ishtirok etishi kerak.

Ota-onalar uchun esa eng muhim tavsiya — farzandga mehr va e'tibor berish, oilada tinch va barqaror muhit yaratishdir. Bola o'zini xavfsiz va sevilgan his qilsa, uning xulqida ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Tarbiyaning mazmuni shaxsni shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Zero, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Insonni jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisidir. Tarbiya insonni insoniyligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadryatdir.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

U bolani tarbiyalash ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota – ona haqiqiy tarbiyachi bo'lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama yakkamuxbatda bo'lish va unga nasixat qilishdir. Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Hos Hojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun tug'ilgandan boshlab zarur tarbiyani olmog'i zarur. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin

hatti harakatlariga berilishini oldi olinadi.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitida soglom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolani bilim olishga bolgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallaydi. Oilada otaonalar, ayniqsa o'qmishli ota onalar o'z farzandlarini haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida etibor berishlari lozim.

Muslixiddin Sadi Sheroziy fikricha oila bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U masuliyatli tarbiyachidir. Ota o'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Sadi Sheroziyning pedagogik qarashicha bola qobilyatli va kamqobilyatli bo'lishi mumkin. Qobilyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobilyat so'nadi, 3 asosiy – aqliy nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga ya'ni oilaviy tarbiyaga katta etibor beradi. Sadi otaonalar harakterini hisobga olgan holda ahloqiy tarbiyani bolani yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, harakter shakllangach, bolaga tasir etmaydi.

Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida rivojlanadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota onalarning namunasi, ulardagi umumtalim darajasi, umummadaniy saviyasi, ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishidan iborat.

Bizga qadimdan ma'lumki o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullangan, ularning tarbiyasi asosan otalar nazoratidan bo'lgan. Ammo hozirgi kunda hamma oilada ham shundaymi? Afsuski yo'q ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladi. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shartdek.

Ota-onalar bolalariga birdek munosabatda bo'lishi, mehribon, g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalarning hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda ikkinchisi yonini olsa ularning tarbiyasi buziladi. Padari buzrukvorlarimiz kattalarni hurmat qilishlarini tushuntirishdan oldin o'z o'zini hurmat qilishlarni o'rgatib borishlari kerak.

Oilada ota –onalar bolalari uchun namuna bo'lishlari kerak. Qush uyasida ko'rganini qiladi deyishganidek oilada ota –ona qanday bo'lsa bola ham xuddi shu tartibda tarbiyalanib boradi. Shuning uchun bolaga u ishni qil yoki qilma deb nasihat qabilidagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman deb o'ylamaslik kerak.

Har bir ota –ona farzandini komil inson bo'lib yetishishini istaydi va jamiyat uchun ham shunday farzandlar zarur. Shuning uchun farzandlarimiz vatanimizning kelajagi va jamiyatimizning tayanchi va suyanchi bo'lib yetishishi uchun bor kuch imkoniyatimiz bilan harakat qilishimiz kerak.

Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan shug'ullanmagan

mamlakat inqirozga yuz tutadi. Mamlakat o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklarini ishlab chiqarib, to'xtovsiz ravishda yuksaltirib borishlari lozim.

Hech kimga sir emas, sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi. Avlodlarimiz salomatligini ta'minlash uchun, avvalo ona o'zini asrab avaylamog'i zarur. Ya'ni urf odatlarimizga ko'ra ona chilla saqlamog'i, yosh bo'shangan ona va bolani asrab avaylamog'i va bolani ona suti bilan boqmog'i kerak.

Shaxsiy gigiyena qoidalariga to'liq amal qilish, toza ovqatlanish, jon jismini, turar joyini ozoda tutish salomatlik garovidir. Har bir ayol uchun, qiz bola uchun tibbiy savodxonlik hayotiy ehtiyojdir. Shu ehtiyojni qondirish maqsadida umumtalim maktablari, oliy o'quv yurtlarida tibbiyot asoslari o'quv kurslarini tashkil etish, xotin qizlar uchun maslahatxonalarda maxsus dasturlar asosida tibbiy bilimlar berishni yo'lga qo'yish, shaxsiy gigiyen qoidalari, bo'lajak onalar, homilador ayollar, yosh onalar, o'smir qizlar uchun kichik kichik hajmdagi turli risolalar metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularga yetkazish, matbuot, ommaviy axborot vositalari va turli shakldagi tadbirlardan foydalanish ko'zlangan natijani beradi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish uy-joy sharoitini yaxshilash, oila budjetini to'g'ri taqsimlash, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, chekishni qat'iyan man etish, muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, sanitariya gigiyena qoidalariga rioya qilish, ma'naviy intellektual shaxs bo'lishni talab qiladi. Oilani moddiy imkoniyatlarini yaratish, ota-onalarning ongliligi, ma'naviyati darajasi farzandlarni jismonan soglom, ma'nan boy qilib o'stirishga imkoniyat yaratadi.

Sog'lom muhit- ulg'ayayotgan har bir shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Sog'lom muhitning saqlanishi ko'p omillarga bog'liq. Masalan: oila boshliqlarining o'zari yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabati, to'g'ri tarbiyalanganligi, ota-onaning bola tarbiyasiga birdek mas'ulligi kabilar shular jumlasidandir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa demak, o'sha oiladagi, o'sha jamiyat bo'g'inidagi sog'lom muhitga putur yetadi. Manfaatlar umumiy bo'lgan ahil oilada yaxshi odat an'analar vujudga keladi. Sog'lom muhit deganda biz nafaqat jismoniy sog'likni, balki ruhiy, aqliy, jinsiy, ma'naviy sog'lom muhitni tushunmog'imiz zarur. Inson tug'ilibdiki unga har xil omillar ta'sir ko'rsatib keladi. Bu ta'sirlar bolaga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biz to'g'ri deb bilgan tarbiya ham turli hil yo'nalishga ega.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, nosog'lom oila muhiti farzand xulqidagi og'ishlarning asosiy sabablaridan biridir. To'g'ri psixologik yondashuv, oilaviy barqarorlik va qo'llab-quvvatlash orqali bunday muammolarni kamaytirish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2017.
2. Davletshin M.G‘. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2016.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Mavlonov A., To‘raqulov X. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Yuldasheva N. Bola va o‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent, 2020.
6. Vygotskiy L.S. Bola rivojlanishining psixologik asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1984.
7. Bandura A. Social Learning Theory. – 1977.
8. Erikson E. Childhood and Society. – 1963.
9. UNICEF. Child Protection and Family Environment Reports. – 2019.
10. WHO. Violence Prevention and Child Mental Health Guidelines. – 2020.
11. UNESCO. Safe Family and School Environment Report. – 2018.